

**Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi tomonidan  
2023-yil I-II-III-choraklarda amalga oshirilgan ishlar va yil yakuniga qadar  
kutilayotgan ustuvor vazifalar to'g'risida  
MA'LUMOTNOMA**

**I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

**11. Kosmik tadqiqotlar yo'nalishida.**

**a) aniq loyihalar doirasida:**

2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi doirasida:

**geologiya** sohasida, respublikaning **10 ta** hududida (*Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan tashqari*) **kosmik monitoring** orqali jami **5 717 ta noqonuniy qazib olish** holatlari, shundan, **3 626 tasi** 2021-yilgacha bo'lgan **noqonuniy qazish, 1 325 tasi o'zboshimchalik bilan qazish, 258 tasi** ruxsat etilgan poligon chegaralarini buzgan holda qazish va **508 tasi** daryo ob'ektlarining sanitariya muhofazasi zonalarida **noqonuniy qazish holatlari** aniqlandi hamda **konuniy chora ko'rish uchun** sohadagi vakolatli organlarga (*Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda uning huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi*) taqdim etildi;

**yer munosabatlari sohasida, Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarini hamda noqonuniy bino va inshootlarni aniqlash** bo'yicha o'tkazilgan kosmik monitoring natijasida jami **9 723 ta** (*Toshkent – 3 340 ta, Sirdaryo – 961 ta, Jizzax – 5 422 ta*) ehtimoli yuqori bo'lgan o'zboshimchalik bilan qurilgan bino-inshootlar aniqlandi va **qonuniy chora ko'rish uchun** sohadagi organlarga taqdim etildi;

**qishloq xo'jaligi** sohasida, qishloq xo'jaligi maydonlarining ma'lumotlar bazasi **to'g'ri va shaffof** yuritilishini ta'minlash va ularni **yangilash** maqsadida **Samarqand va Farg'ona viloyatlarida bug'doy (200,7 ming Ga) va paxta ekilgan maydonlar (136,9 ming Ga)** aniqlandi hamda ma'lumotlar Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi **AgroBI platformasiga integratsiya qilindi;**

**suv xo'jaligi** sohasida, **Chorvoq, Toshkent, Ohangaron, Chortoq, Zarkent, Karkidon, Qo'rg'ontepa va Xisorak** suv omborlarida **aerokosmik monitoring** ishlari amalga oshirilib, ushbu suv omborlarining loyqa oqiziqalar bilan to'lib borish dinamikasini aniqlash (**batimetriya**) va suv hajmini aniqlash bo'yicha ishlar bajarildi hamda texnik hisobot va tahliliy ma'lumotlar shakllantirildi;

**ekologiya** sohasida, **4 ta** hududda **Sirdaryo, Xorazm, Buxoro va Jizzax viloyatlarida** jami **368 ta noqonuniy chiqindixonalar** (*Sirdaryo – 129 ta, Xorazm – 70 ta, Buxoro – 103 ta va Jizzax – 66 ta*) va **29 ta** qonuniy chiqindi **poligonidan tashqariga chiqish holatlari** aniqlandi (*Sirdaryo – 3 ta, Xorazm – 7 ta, Buxoro – 10 ta va Jizzax – 9 ta*);

davlat kosmik monitoringi doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan **4 ta** viloyatdagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda jami **105 ta** qurilgan noqonuniy bino va inshootlar (*Sirdaryo – aniqlanmadi, Xorazm – 2 ta, Buxoro – 23 ta va Jizzax – 80 ta*) aniqlandi va ma'lumotlar sohadagi vakolatli organlarga (*Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va "Xavfsiz daryo" DUK*) taqdim etildi;

oʻrmon xoʻjaligi sohasida, **Toshkent, Jizzax, Samarqand, Fargʻona, Andijon** viloyatlarining **64,1 ming km<sup>2</sup>** ga teng hudud kesimida turli davriylikda kosmik suratlar o

l **seysmik xavfsizlikni taʼminlashda**, suv omborlar toʻgʻonlarining zilzilabardoshligini doimiy kosmik monitoringini yuritish maqsadida **18 ta**, yaʼni **Andijon, Chorvoq, Ohangaron, Hisorak, Pachkamar, Zomin, Qoravultepa, Tallimarjon, Qoʻrgʻontepa, Jiydalisoy, Chortoq, Kattaqoʻrgʻon, Toshkent, Quyimozor, Oqdaryo, Uchqizil, Chimqoʻrgʻon** va **Janubiy Surxon** suv omborlarida **radiolokatsion kosmik monitoring** tizimi joriy etildi va buning natijasida ushbu suv omborlar toʻgʻonlarida yuz berayotgan **deformatsiya, siljish, choʻkish** kabi tendensiyalarni oʻzida mujassamlashtirgan **“Damb Monitoring System”** geoaxborot tizimi faoliyati **yoʻlga qoʻyilib**, manfaatdor vazirlik va idoralarga (*Vazirlar Mahkamasi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Oʻzbekgidroenergo*) AJ) foydalanish uchun taqdim etildi.

a **b) xalqaro xamkorlikni rivojlantirish doirasida:**

t 2023-yil 25-aprelda **Toshkent shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga** aʼzo mamlakatlarning kosmik agentliklari rahbarlarining ikkinchi yigʻilishi, 2023-yil 26-27-aprel kunlari **dunyoning 30 dan ortiq** davlatdan **250 dan ortiq** kosmik korporatsiyalar, agentlik va **qoʻmitalar** vakillari ishtirokida **“Space Technology Conference STC-2023”** xalqaro konferensiyasi oʻtkazildi;

a **BMT Bosh Assambleyasining** 1966-yil 19-dekabrda XXII-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan Kosmosni, shu jumladan Oyni va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish boʻyicha davlatlarning faoliyati tamoyillari toʻgʻrisidagi shartnomani **ratifikatsiya qilish masalasi** tegishli vazirlik va idoralar va **Vazirlar Mahkamasi bilan kelishildi;**

, **Xalqaro astronomika federatsiyasiga aʼzo boʻlish masalasi** Oʻzbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasi bilan kelishildi** hamda **“Oʻzbekkosmos”** agentligining Xalqaro astronomika federatsiyasiga aʼzo boʻlish yuzasidan **ariza yuborildi;**

m Agentlik mutaxassislari xalqaro tashkilotlar yigʻilishlari, xalqaro konferensiya va koʻrgazmalar, seminarlarda ishtirok etish hamda malaka oshirish maqsadida **AQSh, Isroil, Qozogʻiston, Saudiya Arabistoni, Vengriya, Niderlandiya, Tailand Qirolligi, Turkiya** va **Avstriya** davlatlariga xorijiy xizmat safarlari amalga oshirildi;

**Pokiston** kosmik fazo va yuqori atmosferani tadqiq etish komissiyasi, **“Voyager Space”** (AQSh), **“SpaceBuzz”** (Niderlandiya) tashkilotlari bilan **hamkorlik memorandumlari imzolandi.**

t

a **v) taʼlim va ilmiy salohiyatni rivojlantirish doirasida:**

b Toshkent davlat **transport universiteti**, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent shahridagi **Yodju texnik** instituti, Toshkent shahridagi **Turin Politexnika** universiteti, **Toshkent axborot texnologiyalari** universiteti, Oʻzbekiston **Milliy** universiteti, **“Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”** Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent shahridagi **Inxa** universiteti bilan **hamkorlik bitimlari imzolanib, taʼlim dasturlarini** **“Oʻzbekkosmos”** agentligi bilan birgalikda amalga oshirish yoʻlga qoʻyildi.

r

m

o

Hozirgi kunga qadar Toshkent **axborot texnologiyalari** universiteti, **Jahon iqtisodiyot va diplomatiya** universiteti, O'zbekiston **Milliy** universiteti, **Bank moliya akademiyasi** hamda Toshkent davlat **transport** universitetining jami **21 nafar** talaba va tinglovchilari Agentlikda **amaliyot o'tab kelmoqda** va kosmik texnologiyalar, kosmik suratlarni qayta ishlash uchun qo'llaniladigan mahsus "**YeRDAS**" va "**ArcGIS**" kabi dasturiy mahsulotlardan foydalanish va loyihalarni boshqarish bo'yicha **malaka va ko'nikmalari oshirilmoqda**.

**Fransiyaning "ISAE-SUPAERO"** va "**Airbus Defence & Space**" kompaniyasi, **Osiyo va Tinch** okeanida kosmik fan va texnologiya ta'limi markazi (**CSSTEAP**), **AQShning "Maxar Technologies"**, "**Planet Labs**" va "**ESRI**" hamda **Shvesiyaning "Hexagon"** kabi tashkilotlarining yetuk ekspertlarini jalb qilgan holda kosmik texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida hamda mamlakatning mudofaa va xavfsizligini ta'minlash va davlat boshqaruvi tizimida amaliy qo'llanilishi bo'yicha **seminar-treninglar tashkil etildi**.

Agentlik tizimidagi "Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi" MChJ mutaxassislarini xorijda tayyorlash bo'yicha "**El-yurt umidi**" jamg'armasi hamda "**Geometr**" MChJ (Rossiya) bilan hamkorlikda soha mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha **uch tomonlama shartnoma imzolani**b, "Yerni masofadan zondlash materiallarini "**HEXAGON**" geomakon texnologiyalari yordamida qayta ishlash bo'yicha o'quv dasturi tashkil etildi.

**O'zbekiston Respublikasi** Hukumati bilan **Qozog'iston Respublikasi** Hukumati o'rtasida **kosmik fazoni tadqiq etish va undan tinch maqsadlarda foydalanish yuzasidan hamkorlik to'g'risida bitim** doirasida "O'zbekkosmos" agentligi hamda tizim tashkilotlaridan **16 nafar** mutaxassislarining ilmiy va amaliy bilimlarini oshirish maqsadida **Qozog'istonning KGS (Qazaqstan G'arish Sapari)** tashkilotiga **malaka oshirishga yuborildi**.

"**El-yurt umidi**" jamg'armasi mablag'lari hisobidan talabalarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga yuborish dasturi amalga oshirilmoqda (**AQShdagi Colorado Bolder** va **Ayova** davlat universitetlariga **2 nafar** talabalar ta'lim olish uchun yuborildi).

**Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida** kosmik sohaga yosh avlodni qiziqtirish va kosmik sohaning jozibadorligini targ'ib qilish bo'yicha **Turkiyaning Bursa shahridagi "GUHEM"** kosmik va aviatsiya o'quv markaziga **10 ta O'zbekistonning 9-15** yoshgacha bo'lgan iqtidorli o'smirlarini **o'qishga yuborildi**.

## **II. AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR**

1. 2023-yilning yakuniga qadar 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi doirasida 2023-yil uchun tasdiqlangan reja asosida:

**yer munosabatlari** sohasida, **Buxoro, Samarqand va Farg'ona** viloyatlari bo'yicha yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olinishi hamda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida bino va inshootlar qurilishi (qurilgan) holatlarini aniqlash ishlari;

**suv xo'jaligi** sohasida, **17 ta** suv omborida loyqa oqiziqalar bilan to'lib borish dinamikasi va suv sathi rejimini monitoring qilish ishlari;

**ekologiya** sohasida, **Toshkent** va **Samarqand** viloyatlarida mavjud chiqindilarni saqlash joylarida belgilangan hududdan tashqariga chiqish, yangi paydo bo'lgan noqonuniy chiqindi zonalarini aniqlash bo'yicha ishlar yakuniga yetkaziladi.

2. 2024-yil yakuniga qadar 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi doirasida 2024-yil uchun belgilangan vazifalar bo'yicha ishlar tashkillashtiriladi.

3. Xalqaro astronomiya federatsiyasiga a'zo bo'lish bo'yicha choralar ko'riladi.

4. "Kosmik fazo, shu jumladan Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyat tamoyillari to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo'yicha choralar ko'riladi.

5. "**Planet Labs**" kompaniyasi bilan **memorandum imzolanadi**.

6 **Xalqaro astronomiya kongressi (Baku, Ozarbayjon)**, "**InterGeo**" (**Berlin, Germaniya**) hamda "**COP28**" (**Dubay, BAA**) tadbirlarida ishtirok etiladi.

7. AQShning "**ESRI**" kompaniyasining "**ArcGIS**" dasturiy ta'minotida ishlash bo'yicha vazirlik va idoralarning mutaxassislarini o'qitish bo'yicha choralar ko'riladi.

8 Yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlariga Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlari va OTM talabalarining stajirovka o'tashi tashkil etiladi.